

# TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI



## TUG’MA PATOLOGIYALAR VA BOLALAR IRSIY KASALLIKLARI MODULI DASTURI

Bilim sohasi:	900000	- Sog’liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot
Ta’lim sohasi:	910000	- Cog’liqni saqlash
Mutaxassislik:	70910305	- Bolalar nevrologiyasi

Toshkent – 2022

**Tuzuvchilar:**

YO. N. Madjidova

- Toshkent Pediatriya Tibbiyot Instituti Asab kasalliklari, bolalar asab kasalliklari va tibbiy genetika kafedrasi mudiri, t.f.d., professor.

**Taqrizchilar:**

G.Q. Sodiqova

- Toshkent Pediatriya Tibbiyot Instituti Asab kasalliklari, bolalar asab kasalliklari va tibbiy genetika kafedrasi professori, t.f.d.

F.X. Murotov

- Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Asab kasalliklari kafedrasi professori, t.f.d.

Modul dasturi Toshkent pediatriya tibbiyot institutida ishlab chiqildi.

Modul dasturi Toshkent Pediatriya Tibbiyot instituti MUK yigilishida ko'rib chiqilgan va tasdiklashga tavsiya berilgan. (2022 yil “\_24\_” avgust “\_\_1\_\_” – sonli bayonnomma).

Modul dasturi Toshkent Pediatriya Tibbiyot instituti Kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan. (2022 yil “\_31\_” avgust “\_\_314\_\_” – sonli buyruq 3- ilova).

## **1. O'quv modulining dolzarbliji va oliy ta'limgagi o'rni**

Tug'ma patologiyalar va bolalar irsiy kasalliklari moduli o'quv rejaning klinik modullar blokiga taalluqli bo'lib, 2 ta(4-5) semestrlarda o'qitiladi. Tug'ma patologiyalar va bolalar irsiy kasalliklari moduli bo'lajak mutaxassisni tayyorlashning so'ngi bosqichida talabalarga kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirib, talabalar tomonidan bemor bilan bo'layotgan muammolarni aniq tasavvur qilish, muloqot qilish, tibbiyot muassasalarida o'zini tutish, bemorlarni mustaqil kuratsiya qilishni o'rgatadi.

Modulni o'qitish uchun umumiy nevrologiya va bolalik davri nevrologiyasi, perinatal patologiya va bolalarda asab tizimining orttirilgan kasalliklari, epilepsiya va bolalardagi paroksizmal holatlar modullari nazariy zamin bo'lib xizmat qiladi.

## **2. O'quv modulining maqsadi va vazifalari**

**2.1. Modulning maqsadi** - tug'ma patologiyalar va bolalar irsiy kasalliklari moduli davlat ta'lim standartlari va malaka talablarida talabaning bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablarga muvofiq o'quv rejaga kiritilgan muayyan modul tomonidan mehnat bozori talablariga javob beradigan mutaxassislarini sifatli tayyorlash.

### **2.2. Modulning vazifalari:**

- tug'ma patologiyalar va bolalar irsiy kasalliklarini kelib chiqishi, patogenezi, klinikasi va davolashni o'rganish, tashhislashda zamonaviy tashhisiy usullarni qo'llay bilish;
- nevrologiya amaliyotida tashhis qo'yish va davolashda kerakli miqdorda qo'llanuvchi choralariga oid ko'nikmani rivojlantirish;
- kundalik nevrolog amaliyotida qo'llanuvchi zamonaviy laboratoriya, genetik va instrumental tekshirishlarni chuqur tahlil qila bilish;
- tug'ma patologiya va irsiy kasallikka chalingan bemorlarga yuqori malakali yordamni ko'rsata bilishga oid ko'nikmalarni rivojlantirish;
- tug'ma patologiya va irsiy kasallikka chalingan bemorlarga tegishli sotsial va rehabilitatsiya choralarini o'tkazishga oid bilimlarni rivojlantirish;
- tug'ma patologiya va irsiy kasallikka chalingan bemorlar sonini kamaytirishga oid profilaktik choralarini, ilmiy tekshirish va pedagogik faoliyatni amalga oshirishga taalluqli ko'nikmalarni, tashkiliy-uslubiy va administrativ-boshqaruvchilik faoliyatiga doir ko'nikmalarni rivojlantirish

### **2.3. Modul bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar:**

### **Talaba:**

- Irsiy kasalliklar; nerv tizimi irsiy kasalliklari; birlamchi va ikkilamchi miopatiyalar klassifikatsiyasi. Patomorfologiya, klinika, diagnostika va qiyosiy tashxisi. Miotoniya va miotonik sindromlar. Paroksizmal mioplegiya. Ekstrapiramida tizimi zararlanishi bilan kechuvchi irsiy kasalliklar. Miyacha zararlanishi bilan kechuvchi irsiy kasalliklar. Piramida yo'llari zararlanishi bilan kechuvchi irsiy kasalliklar. Fakomatozlar. Modda almashinuvi buzilishi bilan kechuvchi irsiy kasalliklar. Xromosoma kasalliklari va nerv tizimini rivojlanish nuqsonlari to'g'risida ***tasavvurga ega bo'lishi;***
- Tug'ma patologiyalar kelib chiqishining xavf omillarini, embrion va xomila rivojlanishining bosqichlarini, rivojlanish nuqsonlari tasnifini, irsiylanish tiplarini, mutatsiya turlarini, xromosom kasalliklar kelib chiqish mexanizmini va bolalar irsiy kasalliklariga chalingan bemorlarni davolash va reabilitatsiya tamoyillari, laborator-instrumental tekshirishlarni o'tkazish uchun ko'rsatmalarni, bolalarda nerv sistemasi irsiy kasalliklarining klinik va tashhis mezonlarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***
- Tug'ma patologiyalar va bolalar irsiy kasalliklarini boshqa kasallikkardan farqlay olish, ambulator davo muolajalarini tayinlash, kerak bo'lganda esa statsionar davolanishga yoki mutaxassis ko'rígiga yuborish, tibbiy yordam ko'rsatish, reabilitatsiya va dispanserizatsiya o'tkazish, laborator-instrumental tekshirishlarni taxlil qilish, nogironlik darajasini aniqlash ***malakalariga (shu jumladan klinik amaliy ko'nikmalariga) ega bo'lishi kerak;***

### **3. Asosiy qism**

#### **3.1. Moduldagи ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari va mazmuni, tashkil bo'yicha umumiyo ko'rsatma va tavsiyalar:**

*Modulda ma'ruza mashg'ulotlari ko'zda tutilmagan.*

#### **3.2. Moduldagи amaliy mashg'ulotlarning mavzulari, tashkil etish bo'yicha umumiyo ko'rsatma va tavsiyalar:**

Amaliy mashg'ulotlarda magistrler nerv tizimining irsiy kasalliklari, tashhis qo'yish, davolash va reabilitatsiya mezonlarini o'rganadilar.

##### **3.2.1. Amaliy mashg'ulotlarning mavzular ro'yxati:**

###### **4 semestr**

###### **1. Nerv tizimi irsiy kasalliklari**

**1-mavzu.** Irsiy kasalliklar klassifikatsiyasi. Nerv tizimi irsiy kasalliklar klassifikatsiyasi. Birlamchi miopatiyalar klassifikatsiyasi. Progressirlanuvchi mushak distrofiyalari (PMD):

Psevdogipertrofik Dyushen formasi. Erba-Rota yuvenil formasi, klinikasi, diagnostikasi, qiyosiy tashxisi. Landuzi-Dejerin yelka-kurak-yuz formasi. Bekkerning kechki psevdogipertrofik formasi. Klinika, terapiya, profilaktika.

**2-mavzu.** Ikkilamchi miopatiyalar. Klassifikatsiyasi. Patomorfologiya. Klinika, diagnostika, qiyosiy tashxisi. Terapiya, reabilitatsiya. Profilaktika. Miotoniya va miotonik sindromlar. Patogenez. Klinika, diagnostika, qiyosiy tashxisi. Terapiya, reabilitatsiya.

**3-mavzu.** Paroksizmal mioplegiya. Patogenez. Klinika, diagnostika, qiyosiy tashxisi. Terapiya. Reabilitatsiya. Profilaktika. Miasteniya va miastenik krizlar. Patogenez. Patomorfologiya. Klinika, diagnostika, qiyosiy tashxisi. Terapiya. Reabilitatsiya.

**4-mavzu.** Ekstrapiramida tizimi zararlanishi bilan kechuvchi irsiy kasalliklar: gepatotserebral distrofiya, torsion distoniya, mioklonus-epilepsiya. Gentington xoreyasi, nasliy titroq, pallidar degeneratsiya, Lesha-Nayxan sindromi.

**5-mavzu.** Miyacha zararlanishi bilan kechuvchi irsiy kasalliklar: Fridreyx ataksiyasi, P'yer-Mari ataksiyasi. Xant miyacha dissinergiyasi, olivopontotserebellyar atrofiya. Patogenez. Patomorfologiya. Klinika, diagnostika, qiyosiy tashxisi. Terapiya, reabilitatsiya.

**6-mavzu.** Miyacha va periferik nervlar zararlanishi bilan kechuvchi irsiy kasalliklar: Dejerin-Sotta giperstrofik nevriti, Russi-Levi kasalligi, Refsum kasalligi. Patogenez, patomorfologiya. Klinika, diagnostika, qiyosiy tashxisi. Terapiya, reabilitatsiya. Profilaktika.

**7-mavzu.** Piramida yo'llari zararlanishi bilan kechuvchi irsiy kasalliklar: SHtryumpel paraplegiyasi, Patogenez, patomorfologiya. Klinika, diagnostika, qiyosiy tashxisi. Terapiya, reabilitatsiya. Profilaktika.

**8-mavzu.** Fakomatozlar: neyrofibromatoz, tuberozniy skleroz. Ensefalotrigeminal'niyangiomatoz, ataksiya-temangiektaziya, serebral angiomyoza. Patogenez, patomorfologiya. Klinika, diagnostika, qiyosiy tashxisi. Terapiya, reabilitatsiya. Profilaktika.

**9-mavzu.** Modda almashinuvi buzilishi bilan kechuvchi irsiy kasalliklarda asab tizimi zararlanishi: FKU, Teya-Saks kasalligi. Patogenez, patomorfologiya. Klinika, diagnostika, qiyosiy tashxisi. Terapiya, reabilitatsiya. Profilaktika.

**10-mavzu.** Niemann-Pik kasalliklari, mukopolisaxaridozlar, kretinizm, Patogenez, patomorfologiya. Klinika, diagnostika, qiyosiy tashxisi. Terapiya, reabilitatsiya. Profilaktika.

**11-mavzu.** Leykodistrofiyalar. Patogenez, patomorfologiya. Klinika, diagnostika, qiyosiy tashxisi. Terapiya, reabilitatsiya. Profilaktika.

**12-mavzu.** Xromosoma kasalliklari va sindromlari: Daun, SHereshevkiy-Terner, Klaynfel'ter, «X» trisomiyasi, Edvrds sindromi, Patau, antidaunizm, «U» dubli. Patogenez, patomorfologiya. Klinika, diagnostika, qiyosiy tashxisi. Terapiya, reabilitatsiya. Profilaktika.

**13-mavzu.** Tibbiy-genetik konsul'tatsiyasi vazifalari.

**5 semestr**

## **2. Nerv tizimini rivojlanish nuqsonlari**

**1-mavzu.** Embrion va homilaning rivojlanish bosqichlari. Nuqsonlar shakllanishi patofiziologiyasi. Aniqlanishi, tasnifi.

**2-mavzu.** Asab tizimi rivojlanish nuqsonlari sabablari: G.I.Lazyuk 1982 y tasnifi. Mutatsiya va uning turlari (gen, xromosoma, genom). Bemorlar kuratsiyasi.

**3-mavzu.** Homila rivojlanishining kritik davrlari. Markaziy asab tizimi rivojlanish fazalari: asab nayining shakllanishi, dorzal induksiya, ventral induksiya.

**4-mavzu.** Neyronal proliferatsiya, migratsiya, organizatsiya, miyelinizatsiya. Bemorlar kuratsiyasi.

**5-mavzu.** Yirik nuqsonlar rivojlanishi bilan kechuvchi (anensefaliya, ensefalotsele, kranioshizis, miyeloshizis) asab nayi shakllanishi defektlari (dorzal induksiya). Bemorlar kuratsiyasi.

**6-mavzu.** Bosh suyagi-miya churralari: meningotsele, meningoensefalon sele, ensefalotsistotsele. Etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, davolash va profilaktikasi.

**7-mavzu.** Orqa miya churralari: tasnifi, etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi va davolash. Bemorlar kuratsiyasi.

**8-mavzu.** Ventral induksiya kasalliklari: arinensefaliya, qadoqsimon tana ageneziyasi, shizensefaliya. Etiologiya, klinika, diagnostika, davolash.

**9-mavzu.** Ventrikulyar tizim va subaraxnoidal bo'shliq rivojlanish nuqsonlari: Dendi-Uokera sindromi, gidroanensefaliya, porenselofaliya. Bemorlar kuratsiyasi.

**10-mavzu.** Tug'ma gidrotsefaliya: klassifikatsiya, patogenez, patomorfologiya, klinika, diagnostika, differensial diagnostika, davolash.

**11-mavzu.** Bosh miya kutisi nuksonlari: braxitsefaliya, skafotsefaliya, pирготsefaliya, Franchesketti jag'-yuz dizostozi.

**12-mavzu.** Arnol'da-Kiari sindromi, etiologiya, patomorfologiya, klinika, diagnostika, davolash. Platibaziya, bazillyar impressiya. Bemorlar kuratsiyasi.

**13-mavzu.** Hujayra migratsiyasi kasalliklari (oxirgi miya rivojlanish nuqsonlari): lissensefaliya (agiriya), paxigiriya, polimikrogiriya, neyronal'naya geterotopiya, ulegiriya. Etiologiya, klinika, diagnostika, terapiya, prognoz.

**14-mavzu.** Xromosoma aberratsiyalarida rivojlanish nuqsonlari: trisomiya 21 autosomalar, 8 juft autosomalar, 18 juft autosomalar, 22 juft autosomalar. Klinika, diagnostika, differensial diagnostika, terapiya, prognoz.

**15-mavzu.** Autosom xromosom aberratsiyalarida rivojlanish nuqsonlari: 4r va 4q, 10q, 11q va Vol'f-Xirshhorn (4r-) xromosoma sindromi, «mushuk qichqirig'i» (5r-), Orbeli sindromi (15q). Fenotipik belgilari, diagnostikasi.

**16-mavzu.** Neyronal' proliferatsiya kasalliklari: axondroplaziya, mikrotsefaliya, makrotsefaliya. Etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, terapiyasi, prognozi.

**17-mavzu.** serebral gigantizmda rivojlanish nuqsonlari (Sotos sindromi), Videman-Bekvit sindromi. Klinikasi, diagnostikasi, terapiyasi.

**18-mavzu.** Mekkel, Noya-Laksovoy, Smit-Lemli-Opits tug'ma sindromlarida rivojlanish nuqsonlari. Klinika, diagnostika. Kuratsiya bol'nix.

**19-mavzu.** Bosh miya tug'ma anomaliyalarida rivojlanish nuqsonlari: kampolemik displaziya, Fankoni-Al'bertini-TSel'veger sindromi, COFS sindromi (cerebro-oculo-facio-skeletal syndrome). Klinikasi, diagnostikasi, terapiyasi, prognozi.

**20-mavzu.** Aper sindromida rivojlanish nuqsonlari (akrokraniodisfalangiya), Gol'denxar sindrom (okulo-aurikulo-vertebral'naya displaziya). Etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, terapiyasi.

**21-mavzu.** Rubenshteyna-Teybi sindromida rivojlanish nuqsonlari, Korneli de Lange sindromi. Etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, terapiyasi.

**22-mavzu.** Neyrodermatoz sindromlarida rivojlanish nuqsonlari: Rayli Smit sindrom, SHтурge-Veber sindrom. Etiologiyasi, klinikasi, diagnostikasi, terapiyasi.

**23-mavzu.** Tuberoz skleroz va mikrotsefaliyada rivojlanish nuqsonlari. Etiologiya, klinika, diagnostika, terapiya.

**24-mavzu.** Ganglioziidlarning GM-1 1- tip, GM-1 2- tip, GM-2 (Teya-Saksa amavrotik idiota) larida rivojlanish nuqsonlari. Etiologiya, klinika, diagnostika, terapiya.

**25-mavzu.** Nimanna-Pik, Goshe, Al'pers, Aleksander, Krabe, Kanavan kasalliklarida rivojlanish nuqsonlari. Etiologiya, klinika, diagnostika, terapiya.

**26-mavzu.** Pel'sius-Mersbaxer leykodistrofiyasi, SHol's-Grinfield metoxromatik leykodistrofiyasi, Leya (Li) kasalligida rivojlanish nuqsonlari. Etiologiya, klinika, diagnostika.

**27-mavzu.** Rivojlanishning kichik anomaliyalari. Klassifikatsiyasi.

### **3.2.2. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:**

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan klinikaning qabul bo'limida, respublika skrining markazida, statsionarda navbatchilik qilib, bemorlarni taxlil qilib, ertalabki konferensialarda, har bir amaliy mashg'ulotga talaba prezентatsiya tayyorlab ishtiroy etadi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- amaliy mashg'ulotlarni maqsadini aniq belgilab olish;
- talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- talabani nazariy-metodiq jihatdan tayyorlash va h.k.

### **3.2.3. Modulni o'qitish davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar va kompetensiyalar:**

#### **Modul davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yhati:**

O'quv (klinik) amaliyatini o'tish davrida talabalar quyidagi amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan.

1. Mushak tonusini tekshirish

2. Reflekslarni tekshirish

- yuzaki reflekslarni tekshirish:

- shilliq qavat reflekslari
- korneal reflekslar
- kon'yuktival reflekslar
- okolotsefalgik reflekslar
- yutqun reflekslari
- yumshoq tanglay reflekslari
- anal refleksi

- teri reflekslarini tekshirish:

- qorin reflekslari-yuqori, o'rtalik, pastki
- kremaster refleksi
- tovon refleksi

- CHuqur reflekslarni tekshirish

- pay reflekslarini tekshirish:
- bitseps, tritseps, tizza va axillov reflekslari

- Suyak usti reflekslarini tekshirish

- qosh usti, mandibulyar, stiloradial reflekslari

3. Markaziy falaj belgilarini tekshirish

- Barre sinamasi - yuqori, pastki

- Klonuslarni tekshirish

- tizza klonusi, tovon klonusi, kaft klonusi

4. Patologik reflekslarini tekshirish

- YOzuvchi guruh reflekslari:

- Babinskiy refleksi
- Oppengeym refleksi
- Gordon refleksi
- SHeffer refleksi
- Pussep refleksi

- Bukuvchi guruh reflekslari:

- Rossolima refleksi
- Bexterev I, II refleksi
- Jukovskiy refleksi
- YAkobson-Lask refleksi

- Sinkineziyalarni tekshirish:

- global sinkineziyalar
- koordinator sinkineziyalar
- imitatSION sinkineziyalar

5. Ekstrapiramida sistemasini tekshirish:

- statikani tekshirish

- yurishni tekshirish

- mushak tonusini tekshirish
- tovon fenomenini tekshirish
- til simptomlarini tekshirish

#### 6. Harakat koordinatsiyasini tekshirish:

- Romberg holati, murakkablashgan Romberg holati, yurishni tekshirish, barmoq burun sinamasini, tizza tovon sinamasi, diadoxokinez, Babinskiy assinergiyasi, nutqni tekshirish, xusnixat, mushak tonusi, nistagm, dizmetriya, Styuart-Xolms sinamasi.

#### 7. Sezgi sferasini tekshirish:

- YUzaki sezgi
  - taktil, og'riq va harorat sezgisini tekshirish
- CHuqur sezgi
  - mushak bo'g'im, kinestetik, bosim, og'irlik, vibratsiya sezgilarini tekshirish
  - Murakkab sezgi - lokalizatsiya, diskreminatsiya, stereognaziya sezgilarini tekshirish
- Tortilish simptomlari –
  - Neri, Lasseg, Sekar, Matskevich, Vasserman simptomlarini tekshirish

#### 8. Meningial belgilar

- Kernig, ensa mushaklari regidligi, Brudinskiy yuqori, o'rta, pastki, Lessaj, Bexterev simptomlarini tekshirish.

#### 9. Bosh miya juft nervlarini tekshirish

#### 10. Oral avtomatizmi reflekslarini tekshirish - Marinesku Radovichi

#### 11. Nutqni tekshirish

- Sensor afaziya, motor afaziya, o'qish va yozishni tekshirish, praksis gnozisi tekshirish

#### 12. Vegetativ nerv tizimini tekshirish - teri reflekslari, qorachiq reflekslari, visseral reflekslar

#### ***Modul davomida egallanadigan kompetensiyalar (nomi, kodi) ro'yxati:***

Abstrakt fikr yuritish, xodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lish;

Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;

Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va ahloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;

O'z-o'zini rivojlantirishga, anglashga, o'qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik;

Favquloddagi vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam texnikasini, himoya usullarini qo'llashga tayyorlik;

Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar, biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik;

Professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun og'zaki va yozma ravishda rus va xorijiy tillarda muloqot qilishga tayyorlik;

Tibbiy xujjatlarni yuritishga tayyorgalik;

***Modul davomida o'quv (klinik) amaliyotni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:***

Talabalarning o'quv klinik amaliyoti bo'limlarda o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotda amaliy ko'nikmalarga o'rgatish jarayoni batafsil rejalashtiriladi va 4 bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Kirish qismi – mashg'ulotning maqsadi va vazifalari aniqlanadi, o'r ganilayotgan ko'nikmadan foydalanishning motivatsion asosi, uning nazariy jihatlari muhokama qilinadi.

2. Ko'nikmani namoyish qilib berish va ko'p marta mashq qilish – bunda ko'nikmani bosqichlarga to'g'ri taqsimlashga alohida e'tibor qaratiladi. Teskari aloqani olgunga qadar, ya'ni o'r ganilayotgan shaxs mustaqil, biroq pedagog nazorati ostida bajara olganda, ko'nikmani bajarishning barcha bosqichlarini umumlashtirish va mulyajlarda, o'zaro bir-birida ko'p marta mashq qilish va faqat ko'nikmaga ega bo'lgandan so'ng bemorda qo'llaguncha, har bir bosqich namoyish qilinadi va ishlab chiqiladi.

3. O'r ganilgan amaliy ko'nikmalarni bevosita klinika qabul bo'limi, statsionardagi va skrining markazidagi bemorlarda amaliy ko'nikmalar bajariladi.

4. Ushbu ko'nikmaning bemorga tashxis qo'yish uchun ahamiyati va uni turli vaziyatlarda qo'llash muhokama qilinadi.

Mashg'ulot so'ngida o'qituvchi har bir talabaning amaliy ko'nikmani o'zlashtirganlik darajasini baholaydi. Talaba amaliy ko'nikmani o'zlashtira olmagan vaziyatlarda, mashg'ulotdan tashqari vaqtida mustaqil o'zlashtirish tavsiya etiladi.

***4. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar, tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar***

***4.1.Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzular ro'yxati:***

***4 semestr***

1. Irsiy kasalliklar tashhisida molekulyar-genetik tekshirish usullari

2. Ona qornidagi homilani buzilish sabablari

3. Irsiy kasalliklarni o'tish turlari

4. Mutatsiya, mutagen faktorlar

5. Tibbiy-genetik konsul'tatsiyasining vazifalari

***5 semestr***

6. Kichik tug'ma nuksolar. Tasnifi

7. Nerv tizimining rivojlanishidagi uchraydigan tug'ma kamchiliklarining sabablari

8. Tug'ma nuqsonlarni tashhislashda skrining tekshirish usullarini ahamiyati

9. Genning strukturası

10. Genotip, fenotip tushunchalari

#### **4.2. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:**

Tug'ma patologiyalar va bolalar irsiy kasalliklari moduli bo'yicha tavsiya etilayotgan mustaqil ishlar modul tizimida turli xil keys (konkret bemorning kasallik tarixi), vaziyatli masala va testlar shaklida amalga oshiriladi.

#### **4.3. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:**

Tug'ma patologiyalar va bolalar irsiy kasalliklari moduli bo'yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o'tkaziladi.

Talaba mustaqil ishni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari trenajyor, mulyaj va simulyatsion zallarda/markazlarda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni navbatchi shifokor nazoratida amaliy ko'nikma(kasallik tarixini yozish)ni bajarish va navbatchilik daftarlari aks ettirish;

- tibbiyot OTM klinikalari va klinik o'quv bazalarida auditoriyadan tashqari tashkillashtirilgan klinik navbatchilikda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni navbatchi shifokor-pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va navbatchilik daftarlari aks ettirish;

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;

- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayerlash;

- modulning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;

- vaziyatli va klinik muammolarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar yechish;

- CASE (real bemorning kasallik tarixini tahlil) qilish;

- o'tilgan mavzular buyicha testlar tayyorlash.

***Tug'ma patologiyalar va bolalar irsiy kasalliklari moduli bo'yicha kurs ishi rejada ko'zda tutilmagan.***

#### **Modul bo'yicha talabalar bilimini nazorat qilish turlari va baholash mezonlari**

Tug'ma patologiyalar va bolalar irsiy kasalliklari moduli bo'yicha nazorat turlari va baholash mezonlari haqidagi ma'lumot modul bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Talabalarning modul bo'yicha o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

- joriy nazorat (JN);

- oraliq nazorat(ON);

- yakuniy nazorat (YAN).

Modulga ajratilgan kreditlar nazorat turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

Nº	Nazorat turi	Kredit soni
1.	Joriy nazorat	12
2.	Oraliq nazorat	
3.	YAkuniy nazorat	
	<b>JAMI</b>	<b>12</b>

### JORIY NAZORAT (JN)

Joriy nazoratda talabaning modul mavzulari bo'yicha bilim, amaliy ko'nikma va kompetensiyalarni egallash darajasini aniqlash va baholab borish ko'zda tutiladi. Tug'ma patologiyalar va bolalar irsiy kasalliklari moduli bo'yicha JN og'zaki, o'rgatuvchi-nazorat testlari, tarqatma materiallari bilan ishlash, vaziyatli masalalar, mulyaj va fantomlarda ishlash ma'lumotlarini o'rghanish, bemorlar bilan ishlash, uyga berilgan vazifalarni tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin.

Baholashda talabaning bilim darajasi, amaliy mashg'ulot materiallarini o'zlashtirishi, nazariy material muhokamasida va ta'limning interaktiv usullarida ishtirokining faollik darajasi, shuningdek, amaliy bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasi, kompetensiyalarni egallash (ya'ni nazariy, analitik va amaliy yondoshuvlar) hisobga olinadi.

Har bir mashg'ulotda barcha talabalar baholanishi shart. Maksimal ball 100, o'tish bali 55 ball.

Joriy nazorat uchun 12 kredit ajratiladi:

Nerv tizimi irsiy kasalliklari – 4 kredit;

Nerv tizimini rivojlanish nuqsonlari – 8 kredit;

Talaba xar bir bo'limdan belgilangan kreditlarni to'plagandan keyingina oraliq nazorat (ON) va yakuniy nazoratga kiritiladi.

### Modul bo'yicha talaba reytingi quyidagicha aniqlanadi:

Ball	ECTS baho	ECTS ning ta'rifi		Bah o	Ta'rifi
86-100	A	"a'lo" – a'lo natija, minimal hatoliklar bilan	modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi; terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi; muammoli savollarni aniqlashi, o'z qarashlarini ilmiy-amaliy tilda asoslab bera olishi;	5	a'lo

			<p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi va uni qisqa vaqt ichida ilmiy va amaliy masalalarni yechishda samarali qo'llay olishi;</p> <p>nostandart vaziyatlarda muammolarni mustaqil va ijodiy hal qila olish qibiliyatini ko'rsata olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarini mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi;</p> <p>amaliy masalalarni qisqa, asoslangan va ratsional ravishda hal etishi;</p> <p>modul dasturida tavsiya etilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni to'liq va chuqur o'zlashtirishi;</p> <p>modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiylar va yo'nalishlar mohiyatini anglash, ularga tanqidiy baho berish va boshqa modullar ilmiy yutuqlarini qo'llay olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lisi, vazifalarni bajarishda yuqori madaniyat darajasiga ega bo'lisi lozim;</p>		
81-85	B	"juda yaxshi" – o'rtadan yuqori natija, ayrim hatoliklar bilan	<p>modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lisi, zarur dalillar bilan asoslay olishi;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;</p> <p>standart vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarini mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va</p>	4	yaxshi

			<p>belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi;</p> <p>amaliy mashg'ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham ratsional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;</p> <p>modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi;</p> <p>o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiylar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda juda yaxshi madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>		
71-80	C	"yaxshi" – o'rtacha natija, sezilarli hatoliklar bilan	<p>modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;</p> <p>standart vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarini mustaqil ravishda bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni egallashi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;</p> <p>amaliy mashg'ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham</p>		

			<p>ratsional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;</p> <p>modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi;</p> <p>o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiylar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yaxshi darajaga ega bo'lishi lozim;</p>		
60-70	D	"qoniqarli" – sust natija, qo'pol kamchiliklar bilan	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida yetarli bilim hajmiga ega bo'lishi;</p> <p>terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim xatolarga yo'l qo'yishi;</p> <p>javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiyalganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil ammo hatoliklar bilan to'liq bajara olishi;</p> <p>kompetensiyalarni mustaqil, ammo hatoliklar bilan egallashi;</p> <p>modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi;</p> <p>pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;</p> <p>o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiylar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>	3	Qoniqarli
55-59	E	"o'rta" – minimal natijaga teng	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida qoniqarli bilim hajmiga ega bo'lishi;</p> <p>terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon</p>		

			<p>qilishi, lekin bunda ayrim qo'pol xatolarga yo'l qo'yishi;</p> <p>javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynganda va hatolarga yo'l qo'yganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil emas va hatoliklar bilan to'liq bajara olishi;</p> <p>kompetensiyalarni mustaqil emas va hatoliklar bilan egallashi;</p> <p>modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lshi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi;</p> <p>pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;</p> <p>o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiylar va yo'naliishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lshi lozim;</p>		
31-54	FX	"qoniqarsiz" – minimal darajadagi bilimlarni olish uchun qo'shimcha mustaqil o'zlashtirish i zarur	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa;</p> <p>ilmiy terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa;</p> <p>amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'riley olmasa.</p>	2	Qoni qarsiz
0-30	F	"mutloq qoniqarsiz" – to'liq qayta o'zlashtirish i lozim	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa;</p> <p>terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy va qo'pol mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa yoki umuman javob bermasa;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish</p>		

		madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa yoki umuman bajarmasa; amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.		
--	--	--	--	--

## ORALIQ NAZORAT (ON)

Talaba xar bir bo'limdan belgilangan kreditlarni to'plagandan keyingina oraliq nazorat (ON) va yakuniy nazoratga (YAN) kiritiladi. ON modul yakunida test va ogzaki surov shaklida o'tkaziladi. Maksimal ball 100, o'tish bali 55 ball.

## YAKUNIY NAZORAT (YAN)

Talaba xar bir bo'limdan belgilangan kreditlarni to'plagandan va oraliq nazorat (ON) dan o'tgandan keyingina yakuniy nazoratga (YAN) kiritiladi. YAN modul yakunida og'zaki savol-javob shaklida o'tkaziladi. Bunda talabalarning kompetensiyalarni, amaliy ko'nikmalarni egallash darajasi va nazariy bilimlari tekshiriladi. Maksimal ball 100, o'tish bali 55 ball.

### **5. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari**

#### **5.1. Asosiy adabiyotlar**

1. Sodikova G.K., Madjidova Y.O.N., Usmanova D.D. Bolalar nevrologiyasi. Darslik. Toshkent, 2020 y.
2. SHamansurov SH.SH., Studenikin V.M. Nevrologiya rannego detstva. Tashkent, 2010 g.
3. Maksudova X.N., Poroki razvitiya i nasledstvenniye zabolevaniya nervnoy sistemi u detey. Uchebnoye posobiye. Tashkent, 2020 g.
4. Kozlova S.I., Demikova N.S. Nasledstvenniye sindromi i mediko-geneticheskoye konsul'tirovaniye. Moskva, 2007 g.
5. K.F.Swaiman, Stephen Ashval, Donna M Ferriero. Swaiman's Pediatric Neurology, Principles and Practice. 2017 y.

#### **5.2. Qo'shimcha adabiyotlar**

1. A.S.Petruxin, Pritchard D.Dj. Nevrologiya. Meditsinskaya genetika. Moskva, 2012 g.
2. Korf B.R. Nevrologiya. Meditsinskaya genetika. Moskva, 2018 g.
3. Bochkov N.P. Nevrologiya, Meditsinskaya genetika. Moskva, 2017 g.
4. Gusev ye.I., Konovalov A.N., Skvorsova V.I. Nevrologiya, detskaya nevrologiya. Moskva, 2015 g.
5. E.I.Gusev. Nevrologiya, detskaya nevrologiya. Moskva, 2012 g.

6. A.S.Petruxin. Nevrologiya, detskaya nevrologiya. Moskva, 2012 g.
7. Karpov S.M., Dolgova I.N. Nevrologiya. Moskva, 2018 g.
8. J. Aykardi i dr.; per. s angl.; obsh. Red. A.A. Skoromsa. Zabolevaniya nervnoy sistemi u detey. Moskva, 2013 g.
9. Metodi issledovaniya v nevrologii i neurochirurgii. Rukovodstvo dlya vrachey. Moskva, 2000 g.
10. YAxno N.N., Nervniye bolezni. Tom 1 i 2. Moskva, 2003 g.
11. Adams and Victor's Principles of Neurology 10th Edition Allan H. Ropper, Martin A. Samuels, Joshua P. Klein, USA, 2014 y.

### **5.3. Internet saytlari**

[www.tashpmi.uz](http://www.tashpmi.uz)

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

[www.medlincs.ru](http://www.medlincs.ru)

[www.medbook.ru](http://www.medbook.ru)

[www.neuronet.ru](http://www.neuronet.ru)

[www.emedicine.com](http://www.emedicine.com)

## **“TUG’MA PATOLOGIYALAR VA BOLALAR IRSIY KASALLIKLARI” MODULIDAN SILLABUS**

Modulning to’liq nomi	<b>Tug’ma patologiyalar va bolalar irsiy kasallikkleri</b>		
Modul kodi:	Kredit hajmi: umumiy - 12 kredit SHundan: JB – 12kredit: Nerv tizimi irsiy kasalliklari – 4 kredit; Nerv tizimini rivojlanish nuqsonlari – 8 kredit; ON - 0 kredit (o’tilishi shart) YAN – 0 kredit (o’tilishi shart)	Modul o’tilish davri: 2 ta (4-5) semestr	ECTS value: Ispaniya (Barcelona) SJD Barcelona Childrens Hospital Theoretical and practical training in Neuropaediatrics Duration: 2 years Management: Dr Jaume Campistol Plana Qualification: Masters Degree Accreditation: 154 creditos ETCS

Ta'lim yo'naliishi	5A 510205 - Bolalar nevrologiyasi	magistratura
Modulning davomiyligi		12 xafta
O'quv soatlari xajmi:	Jami soat: SHuningdek: ma'ruza amaliy mashg'ulot mustaqil ta'lif	432  - 240 192
O'quv modulining statusi	Klinik modullar bloki	
OTM nomi, manzili		
Kafedra nomi		
Mazkur kursning o'qituvchilari haqida ma'lumot	Ma'ruzachilarning F.I.SH. -	E-mail: -
	Amaliy mashg'ulot o'tkazuvchilarning F.I.SH.	E-mail:
Mashg'ulot vaqt va joyi		
Modulning mazmuni	Tug'ma patologiyalar va bolalar irsiy kasalliklari moduli bo'lajak mutaxassisni tayyorlashning ilk bosqichidan talabalarga kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni boshlaydi, talabalar tomonidan bemor bilan bo'layotgan muammolarni aniq tasavvur qila olish, muloqot qilish, tibbiyot muassasalarida o'zini tutish, bemorlarni mustaqil kuratsiya qilishni o'rgatadi.	
Prerekvizitlar	Umumiy nevrologiya va bolalik davri nevrologiyasi, perinatal patologiya va bolalarda asab tizimining orttirilgan kasalliklari, epilepsiya va bolalardagi paroksizmal holatlar modullari nazariy zamin bo'lib xizmat qiladi.	
Postrekvizitlar	-	
Modulning maqsadi	Tug'ma patologiyalar va bolalar irsiy kasalliklari moduli davlat ta'lif standartlari va malaka talablarida talabaning bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablarga muvofiq o'quv rejaga kiritilgan muayyan modul tomonidan mehnat bozori talablariga javob beradigan mutaxassislarni sifatli tayyorlash.	
Modulning vazifalari	<ul style="list-style-type: none"> <li>- tug'ma patologiyalar va bolalar irsiy kasalliklarini kelib chiqishi, patogenezi, klinikasi va davolashni o'rganish, tashhislashda zamonaviy tashhisiy usullarni qo'llay bilish;</li> <li>- nevrologiya amaliyotida tashhis qo'yish va davolashda kerakli miqdorda qo'llanuvchi choralarga oid ko'nikmani rivojlantirish;</li> <li>- kundalik nevrolog amaliyotida qo'llanuvchi zamonaviy laboratoriya, genetik va instrumental tekshirishlarni chuqur tahlil qila bilish;</li> <li>- tug'ma patologiya va irsiy kasallikka chalingan bemorlarga yuqori malakali yordamni ko'rsata bilishga oid ko'nikmalarini rivojlantirish;</li> </ul>	

	<ul style="list-style-type: none"> <li>- tug'ma patologiya va irsiy kasallikka chalingan bemorlarga tegishli sotsial va reabilitatsiya choralarini o'tkazishga oid bilimlarni rivojlantirish;</li> <li>- tug'ma patologiya va irsiy kasallikka chalingan bemorlar sonini kamaytirishga oid profilaktik choralarmi, ilmiy tekshirish va pedagogik faoliyatni amalga oshirishga taalluqli ko'nikmalarni, tashkiliy-uslubiy va administrativ-boshqaruvchilik faoliyatiga doir ko'nikmalarni rivojlantirish</li> </ul>
Modul bo'yicha talabalar bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar	<p><b>Talaba tasavvurga ega bo'lishi kerak:</b>  Irsiy kasalliklar; nerv tizimi irsiy kasalliklari; birlamchi va ikkilamchi miopatiyalar klassifikatsiyasi. Patomorfologiya, klinika, diagnostika va qiyosiy tashxisi. Miotoniya va miotonik sindromlar. Paroksizmal mioplegiya. Ekstrapiramida tizimi zararlanishi bilan kechuvchi irsiy kasalliklar. Miyacha zararlanishi bilan kechuvchi irsiy kasalliklar. Piramida yo'llari zararlanishi bilan kechuvchi irsiy kasalliklar. Fakomatozlar. Modda almashinuvi buzilishi bilan kechuvchi irsiy kasalliklar. Xromosoma kasalliklari va nerv tizimini rivojlanish nuqsonlari to'g'risida.</p> <p><b>Talaba bilishi shart:</b>  Tug'ma patologiyalar kelib chiqishining xavf omillarini, embrion va xomila rivojlanishining bosqichlarini, rivojlanish nuksonlari tasnifini, irsiyanish tiplarini, mutatsiya turlarini, xromosom kasalliklar kelib chiqish mexanizmini va bolalar irsiy kasalliklariga chalingan bemorlarni davolash va reabilitatsiya tamoyillari, laborator-instrumental tekshirishlarni o'tkazish uchun ko'rsatmalarni, bolalarda nerv sistemasi irsiy kasalliklarining klinik va tashhis mezonlarini.</p> <p><b>Talaba bajara olishi lozim:</b>  Tug'ma patologiyalar va bolalar irsiy kasalliklarini boshqa kasalliklardan farqlay olish, ambulator davo muolajalarini tayinlash, kerak bo'lganda esa statsionar davolanishga yoki mutaxassis ko'rígiga yuborish, tibbiy yordam ko'rsatish, reabilitatsiya va dispanserizatsiya o'tkazish, laborator-instrumental tekshirishlarni taxlil qilish, nogironlik darajasini aniqlash.</p> <p><b>Talaba quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- tug'ma patologiyalar va bolalar irsiy kasalliklarini kelib chiqishi, patogenezi, klinikasi va davolashni o'rganish, tashhislashda zamonaviy tashhisiy usullarni qo'llay bilish;</li> <li>- nevrologiya amaliyotida tashhis qo'yish va davolashda kerakli miqdorda qo'llanuvchi choralgaga oid ko'nikmani rivojlantirish;</li> <li>- kundalik nevrolog amaliyotida qo'llanuvchi zamonaviy laboratoriya, genetik va instrumental tekshirishlarni chuqur tahlil qila bilish;</li> <li>- tug'ma patologiya va irsiy kasallikka chalingan bemorlarga yuqori malakali yordamni ko'rsata bilishga oid ko'nikmalarni rivojlantirish;</li> <li>- tug'ma patologiya va irsiy kasallikka chalingan bemorlarga tegishli sotsial va reabilitatsiya choralarini o'tkazishga oid bilimlarni rivojlantirish;</li> <li>- tug'ma patologiya va irsiy kasallikka chalingan bemorlar sonini kamaytirishga oid profilaktik choralarmi, ilmiy tekshirish va pedagogik faoliyatni amalga oshirishga taalluqli ko'nikmalarni, tashkiliy-uslubiy va administrativ-boshqaruvchilik faoliyatiga doir ko'nikmalarni</li> </ul>

	rivojlantirish
Ta'lim berish usullari	- amaliy mashg'ulotlar - ilmiy tadqiqot ishlari
Ta'minot	videofil'mlar, mul'timediyali va komp'yuter dasturlardan, o'qitish metodikasidagi yangi texnologiyalardan, mavzular bo'yicha nazariy bilimlarni so'rashdan foydalaniladi; talabalarining mustaqil ishi, individual va guruhli prezentatsiyalar, uyga berilgan vazifalarni tayyorlash, referatlar yozish, testlar, vaziyatli masalalar va boshqalar.

### O'qitish natijalari:

#### Modulni yakunlaganda talaba biladi:

Tug'ma patologiyalar kelib chiqishining xavf omillarini, embrion va xomila rivojlanishining bosqichlarini, rivojlanish nuksonlari tasnifini, irsiylanish tiplarini, mutatsiya turlarini, xromosom kasalliklar kelib chiqish mexanizmini va bolalar irsiy kasalliklariga chalingan bemorlarni davolash va reabilitatsiya tamoyillari, laborator-instrumental tekshirishlarni o'tkazish uchun ko'rsatmalarini, bolalarda nerv sistemasi irsiy kasalliklarining klinik va tashhis mezonlarini.

#### Modulni yakunlaganda talaba bajara oladi:

- tug'ma patologiyalar va bolalar irsiy kasalliklarini boshqa kasalliklardan farqlay olish;
- ambulator sharoitda maxsus tekshirish usullarini tavsiya etish va davo muolajalarini tayinlash;
- kerak bo'lganda esa statsionar davolanishga yoki mutaxassis ko'rigiga yuborish;
- tibbiy yordam ko'rsatish;
- reabilitatsiya va dispanserizatsiya o'tkazish;
- laborator-instrumental tekshirishlarni taxlil qilish;
- nogironlik darajasini aniqlash.